

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING
FARMONI

**SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN
ISLOHOTLARNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH VA TIBBIYOT
XODIMLARINING SALOHIYATINI OSHIRISH UCHUN ZARUR SHART-
SHAROITLAR YARATISH TO'G'RISIDA**

Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, aholi salomatligini saqlash borasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida, shuningdek, jamoatchilik tomonidan tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirish yuzasidan bildirilgan takliflarni inobatga olib:

1. Oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarda "tibbiyot brigadalari" faoliyatini yo'lga qo'yish, shuningdek, tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari tomonidan aholiga yanada sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatish qamrovini kengaytirish uchun 2021-yil 1-iyuldan boshlab 10 mingta, 2022-yil 1-yanvardan boshlab esa yana qo'shimcha 10 mingta o'rta tibbiyot xodimlari shtatlari ajratilsin.

Sog'liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev):

Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-iyunga qadar oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar hamda tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari ehtiyojidan kelib chiqib, ularning yangilangan shtat normativlarini tasdiqlasin;

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va yetakchi xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda, 2021-yil 1-avgustga qadar o'rta tibbiyot xodimlari maqomini oshirish nuqtai nazaridan ularning malaka talablari, vazifalari, vakolatlari, javobgarligi, ixtisoslik yo'nalishlarini kengaytirish, lavozimlarini, shuningdek, o'quv dasturlari va rejalarini to'liq qayta ko'rib chiqqan holda, o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirsin hamda uni 2021/2022 o'quv yilidan boshlab to'liq joriy qilsin.

2. Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklarining ehtiyoj mavjud bo'lgan og'ir sharoitli tuman (shahar)lar tibbiyot birlashmalari rahbarlari lavozimlariga respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, ularning filiallari, oliy tibbiyot ta'lim muassasalari, ular huzuridagi klinikalarning malakali rahbar xodimlari va mutaxassislarini shartnoma asosida muayyan muddatga jalb qilish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari ushbu rahbar xodimlar va mutaxassislarga asosiy ish joyidagi o'rtacha oylik ish haqi miqdorini saqlagan holda, ular jalb qilingan tibbiyot birlashmasi rahbari lavozimidagi oylik ish haqini

to'liq to'lab berilishini, ushbu xarajatlar hamda ularning uy-joy ijarasi to'lovlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti va viloyatlar mahalliy budgetlari mablag'lari hisobidan qoplab berilishini ta'minlasin.

Oldingi tahrirga qarang.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-maydagi PF-136-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 06/22/136/0425-son)

4. 2021-yil 1-iyuldan boshlab hamshiralik ishi o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatiga kiritilsin.

Hamshiralik ishi faoliyatini amalga oshirishga o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun o'rnatilgan tartib bilan bir qatorda quyidagi talablar belgilansin:

hamshiralik ishi faoliyatini faqat o'rta tibbiy yoki oliy hamshiralik ishi yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli axborot tizimida 2022-yil 1-yanvardan boshlab ro'yxatdan o'tgan shaxslar amalga oshirishi;

tibbiy muolajalar mazkur Farmonning 1-bandi **to'rtinchi xatboshisiga** muvofiq o'rta tibbiyot xodimlari maqomini oshirishdan kelib chiqib bajarilishi;

hamshiralik ishi faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxs belgilangan muddatlarda o'z malakasini oshirib borishi.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda o'rta tibbiyot xodimlari tomonidan o'zini o'zi band qilgan holda hamshiralik ishi faoliyatini amalga oshirish tartibini tasdiqlasin.

5. Sog'liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev) 2021/2022 o'quv yilidan boshlab klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha qabul kvotasini ikki baravarga oshirsin.

Bunda, quyidagilarni nazarda tutuvchi klinik ordinaturada o'qitishning yangi tizimi joriy etilsin:

a) klinik ordinatura o'quv davrining ikkinchi yili hududlardagi ixtisoslashgan tibbiyot markazlari filiallarida, viloyat bolalar va kattalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari, Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam markazi filiallarida o'tkaziladi, shuningdek, ma'lum bir qismi ish joyida davom ettiriladi;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan:

hududga zarur bo'lgan tor mutaxassislikdagi shifokorlarni tayyorlash uchun tegishli mahalliy budjetdan yetarli miqdorda grant ajratiladi hamda mazkur grant asosida ta'lim olgan bitiruvchilarga tegishli hududga borib, uch yil ishlab berish majburiyati yuklatiladi;

hududga faoliyat yuritish uchun yuborilgan tor mutaxassislikdagi shifokorlarning yashash xarajatlari mahalliy budget mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

6. 2021-yil 1-iyuldan boshlab nodavlat tibbiyot tashkilotlariga quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanishga ruxsat berilsin:

maxsus avtotransport vositasida tashkil etiladigan "mobil tibbiyot" xizmati yordamida joyiga chiqqan holda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish;

nodavlat tibbiyot tashkilotining o'rta tibbiyot xodimlaridan iborat "tibbiy punkt"larini tashkil etish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda mazkur bandeda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amaliyotga to'liq joriy etish maqsadida nodavlat tibbiyot tashkilotlari uchun zarur sharoitlar yaratsin, ular o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borsin.

7. Sog'liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-noyabrga qadar bepul tibbiy yordam olish huquqini beruvchi order berish tizimini axborot texnologiyalarini qo'llagan holda joriy etsin. Bunda:

ehtiyojmand oilalarni "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimiga muvofiq aniqlanishi;

imtiyozli toifadagi shaxslar uchun Davlat budjeti mablag'lari hisobidan davolanadigan kasalliklar ro'yxati, tibbiy xizmatlar hajmi va tibbiyot muassasasining darajalarini Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanishi;

imtiyozli toifadagi shaxslarga davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar hajmi, turi va kasalliklar ro'yxatidan tashqari ko'rsatiladigan tibbiy va boshqa yordamlar qo'shimcha hisoblanishi hamda ular tomonidan belgilangan tartibda haq to'lanishi nazarda tutilsin.

Moliya vazirligi respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarida bepul davolanishga orderlar berish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tadbirlari uchun budget parametrlarida nazarda tutilgan mablag'lar hisobidan 2021-yilda Sog'liqni saqlash vazirligiga qo'shimcha 80 milliard so'm mablag' ajratsin.

8. Sog'liqni saqlash vazirligida Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) tashkil etilsin.

Jamg'armani moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilansin:

Davlat budjeti mablag'lari;

Sog'liqni saqlash vazirligining budgetdan tashqari mablag'lari;

davlat sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan Jamg'armaga yo'naltiriladigan ajratmalar;

xalqaro moliya tashkilotlarining grant mablag'lari;
qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Moliya vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligining so'roviga asosan 2021-yilda Jamg'armaga 50 milliard so'mgacha miqdorda mablag' ajratsin, 2022-yildan boshlab esa zarur mablag'larni Davlat budjeti parametrlarida ko'zda tutsin.

Oldingi tahrirga qarang.

Belgilansinki, Jamg'arma mablag'lari tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlanadigan Ishchi guruhining qaroriga asosan hududiy tibbiyot muassasalariga xorijdan ishga jalb qilinadigan malakali mutaxassislar, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan iqtidorli mutaxassislarga zarur shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan ularni moddiy rag'batlantirish to'lovlarini amalga oshirish, shuningdek, tibbiyot xodimlarini nufuzli xorijiy tibbiyot muassasalari va markazlariga malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborish, yetakchi xorijiy mutaxassislarni davlat tibbiyot muassasalari faoliyatiga jalb etish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

(8-bandning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi PQ-5254-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2021-y., 07/21/5254/0933-son)

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hududiy tibbiyot muassasalariga xorijdan ishga jalb qilinadigan malakali mutaxassislarni tegishli mahalliy budjetlar mablag'lari hisobidan yashash joyi bilan ta'minlash choralarini ko'rsin.

9. Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi (keyingi o'rinlarda — Palata) 2021-yil 1-iyuldan unga Vrachlar va farmatsevtlarga litsenziya berish va attestatsiyadan o'tkazish Respublika markazini qo'shib olish yo'li bilan qayta tashkil etilsin hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tizimiga o'tkazilsin.

Belgilab qo'yilsinki:

Palata Vrachlar va farmatsevtlarga litsenziya berish va attestatsiyadan o'tkazish Respublika markazining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

Vrachlar va farmatsevtlarga litsenziya berish va attestatsiyadan o'tkazish Respublika markazining mablag'lari, mulki, shu jumladan bino va inshootlari, avtotransport vositalari, uskuna, texnika va inventarlari Palataga o'tkaziladi;

Palata rahbariga, zarur hollarda, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan shartnoma asosida mutaxassislar jalb qilish huquqi beriladi;

Palata va uning hududiy bo'linmalari Davlat budjeti mablag'lari hisobidan saqlanadigan boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni 110 ta etib belgilanadi.

10. Palataga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalarini berish;

tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining o'z malakasi va kasbiy darajasini muntazam ravishda oshirib borishini ta'minlash;

attestatsiyadan o'tkazish va malaka toifalari berish jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali uning shaffofligini ta'minlash.

11. Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

12. 2021-yil 1-iyundan boshlab tibbiy texnika, tibbiy buyumlar va ularning butlovchi qismlarini ro'yxatdan o'tkazish natijalari O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan xorijiy tashkilotlar ro'yxati [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

Belgilansinki:

[3-ilovada](#) ko'rsatilgan tashkilotlarning talablariga asosan sertifikatlangan tibbiy texnika, tibbiy buyumlar va ularning butlovchi qismlari O'zbekiston Respublikasi hududida davlat ro'yxatidan o'tkazilishida laboratoriya sinovlaridan o'tkazilmaydi hamda o'rnatilgan tartibda o'n besh ish kunidan kechiktirmay ro'yxatdan o'tkaziladi;

standart talablarga muvofiqligi [3-ilovada](#) ko'rsatilgan tashkilotlar tomonidan berilgan sertifikatlar bilan tasdiqlangan tibbiy buyumlar O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy sertifikatlashtirishdan ozod etiladi.

(12-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi PF-102-sonli [Farmoniga](#) asosan ikkinchi — to'rtinchi xatboshilar bilan almashtirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2022-y., 06/22/102/0291-son)

Davlat bojxona qo'mitasi (M.B. Azimov) Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi, "O'zstandart" agentligi, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil va Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda mazkur badda nazarda tutilgan tibbiy texnika, tibbiy buyumlar va ularning butlovchi qismlarini ortiqcha to'siqlarga yo'l qo'ymasdan respublika hududiga olib kirish ustidan doimiy nazorat o'rnatsin.

13. Belgilab qo'yilsinki, mazkur Farmonning [3](#) va [7-bandlari](#) 26 ta tuman (shahar)larda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami

muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6110-son Farmonida, Sirdaryo viloyatida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4890-son qarorida belgilangan xususiyatlarni inobatga olgan holda qo'llanilishi mumkin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 4-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlari 5-ilovaga muvofiq 2021-yil 1-iyundan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

16. Sog'liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

17. Bosh vazir maslahatchisi O.M. Umarov hamda sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari A.A. Azizov "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimlari yagona kompleksini joriy etish va kuzatib borish, ularning boshqa davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiyasini ta'minlash, zarur bo'lganda, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va kiritish, shuningdek, tibbiyot sohasini raqamlashtirish ahvoli va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida har oyda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritish yuzasidan bevosita mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin.

18. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o'rinbosari B.A. Musayev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari L.N. To'ychiyev, sog'liqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev, uning o'rinbosarlari A.Sh. Inoyatov, U.Y. Sobirov, E.I. Basitxanova, A.A. Azizov, A.V. Alimov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

19. Ushbu Farmonning o'z vaqtida va natijali ijro etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2021-yil 5-may,
PF-6221-son
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-
son Farmoniga
1-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

**Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash
hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish bo'yicha ishchi guruhi**

TARKIBI

1. B.A. Musayev — sog'liqni saqlash vaziri, *Ishchi guruhi rahbari*
2. A.Sh. Inoyatov — sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari, *Ishchi guruhi rahbarining o'rinbosari*
3. E.M. Muxitdinov — bandlik va mehnat munosabatlari vazirining birinchi o'rinbosari
4. U.Y. Sabirov — sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari
5. J.I. Abruyev — moliya vaziri o'rinbosari
6. A.N. Karimov — adliya vaziri o'rinbosari
7. S.I. Ismailov — Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori
8. U.T. Muxamedov — Ichki ishlar vazirligi Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi boshlig'i
9. B.B. Azizov — Tashqi ishlar vazirligi Konsullik-huquqiy departamenti direktori
10. A.Sh. Bekmurodov — "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori
11. *Lavozimiga ko'ra* — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari
12. M.M. Mo'minov — Sog'liqni saqlash vazirligi yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi boshlig'i, *Ishchi guruhi kotibi*

Izoh:

Ishchi guruhi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Mutaxassislar ishga joylashtiriladigan tibbiyot tashkilotlarining joylashgan hududidan kelib chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari Ishchi guruhi tarkibiga jalb qilinadi.

(1-ilova matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-fevraldagi PF-78-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.02.2022-y., 06/22/78/0163-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-
son Farmoniga
2-ILOVA

**Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil
davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish
bo'yicha**

"YO'L XARITASI"

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	“Tibbiyot brigadalari”ning samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	<p>1. Oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar hamda tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarning yangilangan shtat normativlarini tasdiqlash.</p> <p>2. “Tibbiyot brigadalari” faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun 10 mingta shtatlar ajratish.</p> <p>3. Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatilishida “mahallabay” yondashuvni samarali tashkillashtirish, joylarda tibbiyot xodimlariga tizimli ravishda amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatilishini ta’minlash.</p>	<p>2021-yil 1-iyun</p> <p>2021-yil 1-iyul</p> <p>2021-yil 1-avgust</p>	<p>Sog‘liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (<i>Xusanov</i>)</p> <p>Sog‘liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)</p>
2.	O‘rta tibbiyot xodimlarining kasbiy malakalarini rivojlantirish.	<p>1. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, o‘rta tibbiyot xodimlarining kasbiy malakalariga qo‘yiladigan talablarni va ularning tibbiyot tizimidagi vazifalari va funksiyalarini o‘rganish.</p> <p>2. O‘rta tibbiyot xodimlarining malaka talablari, vazifalari, vakolatlari, javobgarligi, ixtisoslik yo‘nalishlari va lavozimlarini qayta ko‘rib chiqish.</p> <p>3. Oliy va o‘rta maxsus tibbiyot ta’lim muassasalarining</p>	2021-yil 1-avgust	Sog‘liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (<i>Toshqulov</i>)

		o'quv dasturlari va rejalarini to'liq qayta ko'rib chiqish. 4. O'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.		
3.	Markaziy tuman (shahar) shifoxonalarining davlat budjetidan moliyalashtiriladigan koykalar fondini qayta ko'rib chiqish.	1. Respublika bo'yicha Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan koykalar fondidan foydalanish samaradorligini shifoxonalar kesimida o'rganish. 2. Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan koykalar fondini budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga ta'minlanadigan koykalar fondiga o'tkazish bo'yicha shifoxona kesimida yillik istiqbolli parametrlarni (grafiklarni) ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2022-2023-yillar davomida	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
4.	Bepul tibbiy yordam olish huquqini beruvchi yo'llanma (order) berish tizimini axborot texnologiyalarini qo'llagan holda takomillashtirish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi.	2021-yil 1-avgust	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>)
5.	Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarining malakali mutaxassislarini markazdan tizimli asosda hududlarga	1. Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari mutaxassislarini shartnoma asosida tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun hududlarga jalb etish	2021-yil 1-iyul	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)

	jalb qilish mexanizmini ishlab chiqish.	amaliyotini yo'lga qo'yish. 2. Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari tomonidan hududlarda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar uchun narxlarni shakllantirish tartibini tasdiqlash.	2021-yil 1-avgust	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>), Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi (<i>Shoraxmetov</i>)
6.	Oilaviy shifokorlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va malakasini oshirib borish.	Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari tomonidan o'z yo'nalishlari bo'yicha hududlardagi oilaviy shifokorlarni qisqa muddatli kurslarda o'qitishni tashkil etish.	Reja-jadvalga muvofiq	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
7.	Olis va chekka hududlardagi shifokorlarga bo'lgan ehtiyojni qoplash uchun "Qishloq shifokori" dasturini samarali amalga oshirish choralarini ko'rish.	1. Olis va chekka hududlardagi shifokorlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib bo'sh shifokor ish o'rinlari ro'yxatini tuzish va talabgorlarni har bir mahalla kesimida aniqlash. 2. "Qishloq shifokori" dasturi doirasida talabgorlar bilan shartnomalar imzolash, ularga uy-joy ajratish va tegishli mablag'lar to'lanishini ta'minlash. 3. "Qishloq shifokori" dasturi ijrosi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	2021-yil 1-iyun 2022-yil 1-avgust 2021-yil 1-oktabr va 2022-yil 1-yanvar	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>)
8.	Xorijdagi tibbiyot tashkilotlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan katta ilmiy va amaliy tajribaga ega mutaxassislarni mamlakatimizdagi tibbiyot tashkilotlarida professional faoliyat	1. Xorijdagi tibbiyot tashkilotlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan mutaxassislar to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish va uning yangilab borilishini ta'minlash.	2021-2022-yillar davomida	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Tashqi ishlar vazirligi (<i>Kamilov</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>), "El-yurt umidi" jamg'armasi (<i>Bekmurodov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

	<p>olib borishiga ko‘maklashish.</p>	<p>2. Xorijdagi mutaxassislarni mamlakatimizdagi tibbiyot muassasalariga ishga joylashtirish, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yashash joyi bilan ta‘minlash choralarini ko‘rish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritish.</p>	<p>Har yarim yil yakuni bo‘yicha</p>	
<p>9.</p>	<p>Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish va ularga malaka toifalari berish tizimini takomillashtirish.</p>	<p>Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish va ularga malaka toifalari berish tartibini axborot texnologiyalarini keng joriy qilishni nazarda tutgan holda qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlash.</p> <p>Bunda, tibbiyot muassasalarida bevosita diagnostika va davolash-profilaktika faoliyati bilan shug‘ullanayotgan ilmiy darajasi mavjud bo‘lgan yoki, istisno tariqasida, sog‘liqni saqlash vazirining taqdimnomasiga ko‘ra ilmiy darajasi mavjud bo‘lmasada, yuqori nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarga bir pog‘ona yuqori malaka toifasi berishga ruxsat berishni nazarda tutish.</p>	<p>2021-yil 1-iyul</p>	<p>Sog‘liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (<i>Sadikov</i>)</p>

10.	Respublikada kasbiy faoliyatni amalga oshirayotgan tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini ro'yxatga olish hamda ular to'g'risida yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratishga yo'naltirilgan axborot tizimini (keyingi o'rinlarda — Ro'yxatga olish axborot tizimi) joriy etish.	<p>1. Ro'yxatga olish axborot tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p> <p>2. Sog'liqni saqlash vazirligining asoslangan hisob-kitoblariga ko'ra Ro'yxatga olish axborot tizimini yaratish va amaliyotga joriy etish uchun Davlat budjetidan zarur mablag'larni ajratish.</p>	2022-yil 1-yanvar	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Moliya vazirligi (<i>Ishmetov</i>)
11.	Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini ro'yxatga olish tizimini 2024-yilgacha bosqichma-bosqich joriy etish.	Xalqaro tajribadan kelib chiqib, tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini ID raqam berish orqali ro'yxatga olish tizimini 2024-yilgacha bosqichma-bosqich joriy etishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2021-yil 1-noyabr	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar
12.	Hududlar uchun zarur bo'lgan tor mutaxassislikdagi shifokorlarni tayyorlash ko'lamini oshirish.	<p>1. Klinik ordinatura mutaxassisliklari bo'yicha qabul kvotalarini qayta ko'rib chiqish.</p> <p>2. Hududlarda tor mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va klinik ordinaturada o'qitish uchun mahalliy budjetlardan grantlar ajratish.</p>	2021-yil 1-avgust 2021/2022 o'quv yilidan boshlab	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
13.	Nodavlat tibbiyot tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirish.	<p>Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p> <p>Bunda, shu jumladan quyidagilar nazarda tutiladi:</p>	2021-yil 1-iyul	Sog'liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

		<p>nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimlari yagona kompleksi doirasida tibbiy hisobot topshirish mexanizmini takomillashtirish;</p> <p>qo‘shimcha tibbiy ixtisoslik turini yoki nodavlat tibbiyot tashkiloti filialini litsenziyalashda uning litsenziya talablari va shartlariga muvofiqligini o‘rganish, o‘rganishlarni faqat so‘ralayotgan tibbiy ixtisoslik turi hamda tashkilot filiali qismida o‘tkazish;</p> <p>tibbiy faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya talablari va shartlari buzilgan taqdirda, litsenziyaning amal qilishi faqat bunday buzilishlarga yo‘l qo‘yilgan tibbiy ixtisoslik turi qismida to‘xtatish (tugatish).</p>		
14.	<p>O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini 2022 — 2025-yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.</p> <p>Bunda, 2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi</p>	<p>Normativ-huquqiy hujjat loyahasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2022-yil 1-yanvar	<p>Vazirlar Mahkamasi (<i>Musayev</i>), Sog‘liqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

	sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish natijalarini chuqur tahlil qilish hamda xalqaro ekspertlar ishtirokida kelgusi yillar uchun ustuvor vazifalarni belgilashga alohida eʼtibor qaratish.			
15.	Davolash-profilaktika muassasalari, ovqatlanish, mehnat, kommunal xoʻjaligi va boshqa yoʻnalishlardagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini xalqaro standartlarga muvofiq qayta koʻrib chiqish va tubdan takomillashtirish boʻyicha dastur qabul qilish.	<p>1. Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti va yetakchi xorijiy ekspertlarni jalb qilish.</p> <p>2. Dastur loyihasini ishlab chiqish, keng jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazish.</p> <p>3. Dastur loyihasini amalga oshirish.</p>	<p>2021-yil 1-iyul</p> <p>2021-yil 1-sentabr</p> <p>2021-yil 1-oktabrdan boshlab</p>	Sogʻliqni saqlash vazirligi (<i>Xadjibayev</i>), Sanitariya-epidemiologiya xizmati (<i>Yusupaliyev</i>), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (<i>Xusanov</i>), Qurilish vazirligi (<i>Zakirov</i>), manfaatdor vazirlik va idoralar

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-son Farmoniga

3-ILOVA

2021-yil 1-iyundan boshlab tibbiy texnika, tibbiy buyumlar va ularning butlovchi qismlarini roʻyxatdan oʻtkazish natijalari Oʻzbekiston Respublikasida tan olinadigan xorijiy tashkilotlar ROʻYXATI

1. Oziq-ovqat va dori vositalari sifati nazorati boshqarmasi (FDA), AQSh.
2. Yevropa muvofiqligi (SE) sertifikatini berishga vakolatli organlar, Yevropa Ittifoqi.
3. Yevropa dori vositalari agentligi (EMA), Yevropa Ittifoqi.
4. Farmatsevtika va tibbiy buyumlar agentligi (PMDA), Yaponiya.
5. Oziq-ovqat va dori vositalari xavfsizligi vazirligi (MFDS), Koreya Respublikasi.

6. Dori vositalari va tibbiy buyumlar nazorati agentligi (MNRA), Buyuk Britaniya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-son Farmoniga
4-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi PF-5490-son Farmoni bilan tasdiqlangan Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimida ro'yxatdan o'tkazish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibida o'tkaziladigan tekshiruvlar ro'yxatining 10-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

10.	<p>O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha:</p> <p>uch oyda ko'pi bilan bir marotaba — umumiy ovqatlanish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi, shu jumladan oziq-ovqat xomashyosi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda iste'molchilarni vodoprovod suvi bilan ta'minlaydigan, oqova suvlarni chiqarib tashlaydigan;</p> <p>olti oyda ko'pi bilan bir marotaba — qonun hujjatlariga ko'ra xodimlari tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan savdo va aholiga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan, shu jumladan sartaroshxona va kosmetologiya xizmatlarini ko'rsatuvchi;</p> <p>bir yilda ko'pi bilan bir marotaba — aholiga diagnostika, davolash-profilaktika xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarida tekshiruvlar o'tkazish.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati</p>	<p>10 kundan oshmagan holda</p>
-----	---	---	---------------------------------

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099-son Farmoni 1-ilovaning 12-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6110-son Farmonida:

a) 3-band quyidagi tahrirdagi sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarining rahbarlariga, zarur hollarda xarajatlar smetasida ko‘zda tutilgan mablag‘larni budjet tasnifining xarajatlar guruhlari o‘rtasida mustaqil qayta taqsimlash vakolati beriladi”;

sakkizinchi — o‘n birinchi xatboshilar tegishincha to‘qqizinchi — o‘n ikkinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) 6-bandning **uchinchi xatboshisidan** “tibbiyot oliy ta‘lim tashkilotini oxirgi 3 yil ichida tamomlagan va” so‘zlari chiqarib tashlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-son Farmonining **4-bandi** chiqarib tashlansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-apreldagi PQ-2863-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy tibbiyot tashkilotlari uchun taqiqlangan, aholining hayoti, sog‘ligi va sanitariya-epidemiologik xotirjamligi uchun yuqori darajadagi xavf-xatar bilan bog‘liq tibbiy faoliyatning ayrim turlari ro‘yxatining **2-bandidan** “teritanosil” so‘zlari chiqarib tashlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi “Davlat tibbiyot muassasalari va sog‘liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4007-son **qarorida**:

a) 5-bandi **“a” kichik bandida**:

uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oliy tibbiyot ta‘lim muassasalari hisobvaraqlarida jamlanadigan pullik o‘qish kontraktlari bo‘yicha tushumlar, shuningdek, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hamda uning hududiy bo‘linmalarining pullik tushumlari miqdorining 5 foizi;

to‘rtinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

beshinchi xatboshisida “20 foizi” so‘zlaridan keyin “shuningdek, tibbiy faoliyatni litsenziyalash uchun undiriladigan yig‘imlar”so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

b) 6-band **“a” kichik bandida**:

oltinchi xatboshida “xorijiy ekspertlar va konsalting tashkilotlarini jalb qilish” so‘zlari “mahalliy va xorijiy ekspertlar hamda konsalting tashkilotlarini jalb qilish” so‘zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshida “oliy” so‘zidan keyin “va o‘rta” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-apreldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida sanitariya-

epidemiologiya xizmati xodimlarini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4695-son qarorining 1 — 5-bandlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son qaroriga **ilova** quyidagi mazmundagi 68-band bilan to'ldirilsin:

"68. Hamshiralik ishi."

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-oktabrdagi "Sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4847-son **qarorida**:

a) 4-bandning **oltinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Sog'liqni saqlash vaziriga, zarur hollarda, Sog'liqni saqlash vazirligi markaziy apparati, uning hududiy organlari, shuningdek, idoraviy tashkilotlarining tuzilmalariga xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni hamda davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin";

b) 6-bandning **sakkizinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin;

v) **7-bandda**:

ikkinchi xatboshidagi "2020-yil 1-noyabrdan" so'zlari "2021-yil 1-iyundan" so'zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4890-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomning **28-bandida** "2 yildan 5 yilgacha — 0,1, 5 yildan 10 yilgacha — 0,2, 10 yildan 15 yilgacha — 0,3, 15 yildan 20 yilgacha — 0,4, 20 yildan 25 yilgacha — 0,5, 25 yildan yuqori — 0,6" so'zlari "1 yildan 3 yilgacha — 0,3, 3 yildan 5 yilgacha — 0,6, 5 yildan 10 yilgacha — 0,8, 10 yildan 15 yilgacha — 1,0, 15 yildan 20 yilgacha — 1,2, 20 yildan yuqori — 1,5" so'zlari bilan almashtirilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-yanvardagi "Olis hududlardagi budjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4940-son **qarorida**:

a) 1-bandning **uchinchi xatboshisidan** "tibbiy oliy ta'lim tashkilotini oxirgi 3 yil ichida tamomlagan va" so'zlari chiqarib tashlansin;

b) 2-bandning to'rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“mazkur qarorda nazarda tutilgan boshlang'ich yordam puli va har oylik pul kompensatsiyasi hamda uy-joy sharoitini yaxshilash bo'yicha imtiyozlardan olis va chekka hududlarda joylashgan oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar hamda ta'lim muassasalariga ishga qabul qilingan oliy ma'lumotli boshqa hududda yashovchi shifokorlar va mutaxassislar, shuningdek, oliy ta'lim muassasasining bakalavriati yoki magistraturasini (ta'lim shaklidan qat'i nazar — kunduzgi, sirtqi, kechki, shuningdek, ikkinchi mutaxassislik) tamomlaganidan keyin uch yil mobaynida olis va chekka hududlarda joylashgan budjet tashkilotlariga ishga kirgan bitiruvchilar foydalanish huquqiga ega”;

v) 7-band “mutaxassislar” so'zidan keyin “va (yoki) tibbiyot xodimlari” so'zlari bilan to'ldirilsin.

12. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi 213-son qarori bilan tasdiqlangan Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish tartibi to'g'risidagi nizomning 15-bandi:

a) quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“15 ish kuni — tan olish yo'li bilan ro'yxatdan o'tkaziladigan tibbiy texnika, tibbiy buyumlar va ularning butlovchi qismlari”;

ikkinchi — o'ninchi xatboshilar tegishincha uchinchi-o'n birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) quyidagi mazmundagi o'n ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qayta malakalangan dori vositalari va “in vitro” tashxis tibbiy buyumlari, tan olish yo'li bilan ro'yxatdan o'tkaziladigan tibbiy texnika, tibbiy buyumlar va ularning butlovchi qismlarini ro'yxatdan o'tkazishda laboratoriya sinovlari o'tkazilmaydi”.

13. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-fevraldagi 170-son qarori bilan tasdiqlangan Uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish, davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomga 3-ilovaning 22-pozitsiyasi “Toifalarning nomlanishi” ustuni “mutaxassislar” so'zidan keyin “va (yoki) tibbiyot xodimlari” so'zlari bilan to'ldirilsin.

14. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-noyabrdagi 917-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kiradigan davlat maqsadli jamg'armalarining ro'yxati quyidagi mazmundagi 19-band bilan to'ldirilsin:

“19. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi”.

15. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-avgustdagi “Koronavirus infeksiyasini yuqtirgan bemorlarga tibbiy yordam ko’rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 461-sonli qarorining 9 va 10-bandlari chiqarib tashlansin.

16. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-avgustdagi “O’zbekiston Respublikasi Bolalar milliy tibbiyot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 523-son qarorida:

a) 5-bandning ikkinchi xatboshisi “respublika bolalar tibbiyot muassasalari” so’zlaridan keyin “va hududiy bolalar ko’p tarmoqli tibbiyot markazlari” so’zlari bilan to’ldirilsin;

b) 6-band quyidagi tahrirdagi uchinchi xatboshi bilan to’ldirilsin:

“laboratoriya, radiologiya, nuklear tibbiyot va gemodializ xizmatlarini ijara hamda autsorsing mexanizmlarini qo’llash orqali tajribali nodavlat tibbiyot tashkilotlariga berish”;

uchinchi xatboshi to’rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

v) 10-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“respublika bolalar tibbiyot muassasalari va hududiy bolalar ko’p tarmoqli tibbiyot markazlari tomonidan beriladigan yo’llanmalarga (orderlarga) asosan tabaqalashtirilgan tariflar asosida Markaz tomonidan ko’rsatilgan tibbiy xizmatlar qiymatini qoplash uchun Davlat budjetidan mablag’lar ajratilishi ta’minlasin”.

17. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-sentabrdagi “O’zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish tadbirlariga ajratilayotgan mablag’larning samaradorligini ta’minlashga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 583-son qarorida:

a) 2-bandning birinchi va ikkinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Belgilansinki, 2021-yil 1-iyundan e’tiboran:

vrachlarga 15 million so’m, boshqaruv va o’rta tibbiyot xodimlariga 10 million so’m, provizor-farmatsevt xodimlarga 6 million so’m, dezinfektor va kichik tibbiyot xodimlariga 4 million so’m va boshqa xodimlarga 2,5 million so’m miqdorida maxsus rag’batlantirish to’lovlari (daromad solig’idan tashqari) kunlik tarzda ishlash sharoitiga o’tkazilgan holda har 30 kunlik davr uchun kuniga 8 soatdan kam bo’lmagan ish yuklamasini inobatga olgan holda bir oyda bir marotaba to’lanadi;”

b) 3-bandning to’rtinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

v) 7-band chiqarib tashlansin;

g) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati hududiy boshqarmalari koronavirus infeksiyasiga qarshi

kurashish davrida tibbiyot muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi va Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi, shu jumladan, jalb qilingan xodimlarga maxsus rag'batlantirish to'lovlarining to'g'ri va to'liq to'lanishi ustidan tizimli nazorat o'rnatsin”;

d) 1-ilovada:

a) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Xodimlarga maxsus to'lovlar (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bilan birga), shuningdek, ulardan to'lanadigan ijtimoiy soliq 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasidan (keyin o'rinlarda — Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi) va 2021-yilda Davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi”;

b) 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Xodimlarga ish hajmidan kelib chiqib, kunbay ishlash sharoitiga o'tkazilgan holda har 30 kunlik davr uchun ish yuklamasini inobatga olgan holda har oylik ish faoliyati yakuni bo'yicha quyidagi miqdorlarda (soliqlardan tashqari) maxsus to'lov belgilanadi:

vrach xodimlarga, vrach-laborantlarga — 15 million so'm;

boshqaruv va o'rta tibbiyot xodimlariga, hamshira-laborantlarga — 10 million so'm;

provizor-farmatsevt xodimlarga — 6 million so'm;

dezinfektor va kichik tibbiyot xodimlariga — 4 million so'm;

boshqa xodimlarga — 2,5 million so'm.

v) 6-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Xodim tomonidan 30 kun davomida bajarilgan ish hajmidan kelib chiqib ish soatlariga nisbatan mutanosib ravishda, biroq tegishli lavozimlardan kelib chiqib ko'pi bilan 2,5 million so'm, 4 million so'm, 6 million so'm, 10 million so'm va 15 million so'm miqdorida to'lanadi”.

18. Ushbu ilovaning:

7, 10, 15 va 17-bandlari 2021-yil 1-iyundan;

8-bandi 2021-yil 1-iyuldan boshlab amalga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-son Farmoniga

5-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2021-yil 1-iyundan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan ayrim hujjatlari

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi PQ-4652-son “Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga jalb qilingan tibbiyot va sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarini

qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyuldagi "Koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash davrida aholini tez tibbiy yordam xizmati bilan keng qamrab olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 446-son qarori.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son, 05.10.2021-y., 07/21/5254/0933-son; 24.02.2022-y., 06/22/78/0163-son, 12.04.2022-y., 06/22/102/0291-son, 18.05.2022-y., 06/22/136/0425-son)